

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.B.Eshqurbanov, A.X.Raximov, X.X.Xudoqulov, M.R.O'ralova</b>	
Tuproqlarda uchraydigan organik uglerod miqdorini "Walkley-black" usuli yordamida aniqlash .....	130
<b>Sh.B.Mamatova, M.J.Qurbanov</b>	
Ikkilamchi polietilen chiqindisi asosidagi polimer kompozitsion materiallarning zichligini gidrostatik tortish usulida o'rganish .....	135
<b>Н.И.Файзуллаев, И.И.Мамадолиев, М.Х.Арипова</b>	
Oчистка природного газа от сероводорода сорбентами на основе цеолита.....	140
<b>M.T.Rasulov, S.B.Murodova</b>	
Olovga chidamli qoplama materiallarining zamonaviy holati, maqsadi va rivojlanish tendentsiyalari.....	146
<b>Г.А.Абдуллаева, С.С.Муродов, Ш.Ш.Даминова, Ш.Ш.Тургунбоев</b>	
Синтез и исследование комплексного соединения Zn(II) с 2-меркаптобензтиазолом .....	153
<b>М.Е.Ziyadullayev, R.K.Karimov, S.X.Adilboyev</b>	
2-al mashgan 3(h)-xinazolin-4-on hosilalari sintezi va ularni nitrolash reaksiyalari .....	161
<b>H.R.Rahimova, A.A.Ibragimov</b>	
<i>Phlomoides speciosa</i> o'simligining mikroelementlar tarkibi va vitaminlari.....	168

## BIOLOGIYA

<b>M.T.Isag'aliyev, G.Yuldashev, M.V.Obidov, D.E.Djurayeva, T.X.Shermatov</b>	
Bo'z tuproqlar va tabiiy dorivor o'simliklarda elementlar biogeokimyosi.....	173
<b>Z.A.Jabbarov, N.Sh.Sultonova</b>	
Fitoremedatsiya qobilyatiga ega o'simliklar va ularning turlari .....	180
<b>M.R.Shermatov</b>	
Farg'ona vodiysi agroekotizimlari tangachaqanotli hasharotlarining rivojlanish sikllari va fenologik xususiyatlari .....	185
<b>S.M.Xaydarov, J.G'.Raximov</b>	
Mikrosuvo'tlarini – tabiiy ozuqa manbai sifatida baholash .....	192
<b>G.M.Zokirova</b>	
Janubiy Farg'ona hududi koxsinellid qo'ng'izlari ( <i>Coleoptera: Coccinellidae</i> ) ning bioekologiyasi .....	201
<b>D.P.Jabborova, Z.A.Jabbarov, M.Dustova</b>	
Bamiya barglaridagi plastid pigmentlar miqdoriga biochar va mineral o'g'itlarning ta'siri .....	205
<b>Z.A.Jabbarov, T.Abdraxmanov, Sh.Z.Abdullayev, D.A.Yagmurova</b>	
Qurg'oqchilik omili ta'sirida tuproq unumdonlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi.....	211
<b>M.R.Shermatov, M.M.Muhammedov</b>	
Farg'ona vodiysi agroekotizimlari bargo'rар kapalaklari ( <i>Lepidoptera, Tortricidae</i> ).....	221
<b>I.I.Musayev, A.T.Turdaliyev</b>	
Sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlarda makroelementlarning geokimyoviy xususiyatlari .....	227
<b>S.Sh.Axmadjonova</b>	
Farg'ona vodiysi sharoitida no'xat donxo'ri ( <i>Bruchas pisorum L.</i> )ning ayrim biologik xususiyatlari va zarar keltirishi.....	231
<b>E.A.Botirov</b>	
<i>Agrotis obesa</i> Boisduval, 1829 kapalagining ( <i>Lepidoptera: Noctuidae</i> ) morfologiyasi va bioekologik xususiyatlari .....	234
<b>H.X.Salimova</b>	
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani sug'oriladigan tuproqlarining tarkibi va xossalari .....	239

## GEOGRAFIYA

<b>R.T.Pirnazarov, Sh.N.Axmadjonova</b>	
O'rta Osiyo to'g'onli ko'llarining geografik tarqalishi va ularning xavflilik darajasini baholash masalalari .....	246
<b>K.O.Daljanov, Sh.B.Qurbanov</b>	
Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi va uni rivojlantirish imkoniyatlari .....	254
<b>A.A.Xalmirzayev, U.T.Egamberdiyeva</b>	
Mintaqa qishloq xo'jaligini rivojlantirish istiqbollari .....	260



УО'К: 631.92

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VA UNI  
RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАГИСТАН  
И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО РАЗВИТИЯ**

**AGRICULTURE OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAGISTAN AND OPPORTUNITIES  
FOR ITS DEVELOPMENT**

Daljanov Kazakbay Ongarbayevich<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Qoraqalpoq Davlat universiteti iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi assistenti

Qurbanov Shuxrat Bekmetovich<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>O'zbekiston Milliy Universiteti Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya**

*Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi va uni rivojlantirishning iqtisodiy geografik jihatlari ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi va hududiy xususiyatlariga qaratilgan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются экономико-географические аспекты сельского хозяйства и его развития в Республике Каракалпакстан. Основное внимание уделено динамике и региональным особенностям сельскохозяйственного производства.*

**Abstract**

*The article discusses the economic and geographical aspects of agriculture and its development in the Republic of Karakalpakstan. The main attention is paid to the dynamics and regional characteristics of agricultural production.*

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligining tarmoq tuzilishi, dehqonchilik, chorvachilik, qishloq xo'jalik mahsuloti, oziq-ovqat, yaylov chorvachiligi.

**Ключевые слова:** отраслевая структура сельского хозяйства, земледелие, животноводство, сельскохозяйственная продукция, продукты питания, пастбищное животноводство.

**Key words:** sectoral structure of agriculture, farming, livestock breeding, agricultural products, food products, pasture farming.

**KIRISH**

Aholi sonining ortib borishi bilan uning oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ham o'sib boradi, bu esa, o'z navbatida, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, hududiy tarkibini takomillashtirishning dolzarbligini belgilab beradi. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, «2050-yilga borib jahon aholisining 9 milliarddan ortishi, urbanizatsiya darajasining tez sur'atlarda o'sishi va aholining 70 foizi shaharlarda to'planishi kutilayotgan bir paytda, dunyo aholisini boqish uchun global darajada qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ikki barobarga oshirish kerak bo'ladi» [8].

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida «Suvszizlik va qurg'oqchilikka chidamli, har bir hududning iqlimiga mos ekinlar, meva va uzumning yuqori hosildor navlarini yaratish va hosildorlikni 30-35 foizga oshirish» muhim vazifa sifatida belgilangan [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 1-ilova "III. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash"

## GEOGRAFIYA

bo'limi 30-maqсададида "Qishloq xo'jalигини илмий асосда интенсив ривојлантариш орқали деҳқон ва фермерлар даромадини камидаги 2 баравар ошириш, qishloq xo'jalигининг ўйлик о'sishini камидаги 5 foizga yetkazish" belgilangan [2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori [3], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-fevraldagagi "Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-66 Qarori [4] hamda ushbu sohaga tegishli boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'ini iqtisodiy-geografik jihatdan tahlil qilish ishning maqsadi hisoblanadi. Maqsaddan kelib chiqqan holda, qo'yidagi tadqiqot vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan: 1) Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganish; 2) Respublikada qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish dinamikasini tahlil qilish.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Iqtisodiyotning yirik tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligini geografik o'rganishning nazariy-uslubiy asoslari xorijlik olimlar I.G.Tyunen, K.I.Ivanov, V.G.Kryuchkov, A.M.Nosonov, A.N.Rakitnikovlarning ishlarida keltirilgan. Respublikamizda qishloq xo'jaligi geografiyasiga oid ilk monografik tadqiqotlar o'tgan asrning o'talarida professorlar Z.M.Akramov va A.N.Rakitnikovlar hamkorligida olib borilgan. Ular Zarafshon havzasida tashkil etilgan kompleks iqtisodiy-geografik ekspeditsiyaga rahbarlik qilgan va 1961-yilda ikki jildli «Samarqand va Buxoro viloyatlarining qishloq xo'jaligi geografiyasini nashr ettirgan.

Turli hududlar misolida qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanishining iqtisodiy geografik jihatlari M.Yusupov, R.Xodiyev, A.Valixonov, Ye.Umarov, A.Ro'ziyev, B.Ishchanov, S.Saidkarimov, T.Egamberdiyev, K.Qurbanov, B.Mirtursunov, S.Boqiev, T.Jumayev, X.Xalilova, Yu.Ahmadaliyev, R.Usmonov, A.Xolmirzayev, K.Xidiraliyev, M.Fayzullayev, F.Rajabov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash, xususan, agrosanoat majmualari rivojlanishning iqtisodiy geografik muammolari bilan M.Maxmudova, Q.Allanov, X.Shosaidov, X.Abdunazarovlar shug'ullanishgan.

Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlanishiga oid bo'lgan qarorlar va farmonlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida yaratilgan nazariy bilimlar, qishloq xo'jaligi geografiyasini bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlanmalaridan foydalilanigan. Maqolaning uslubiy asosini kompleks yondoshuv tashkil etadi. Shuningdek, tizim-tarkib, tarixiy, statistik, matematik, hududiy tahlil kabi usullardan foydalilanigan.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Qishloq ho'jaligi agroiqtisodiyot sohalarining fundamental, birlamchi bo'g'ini bo'lishi bilan birga, mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida muhim o'ringa ega. Buni davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda, xususan respublika Prezidentining qaror va farmonlarida agrar sektorga alohida e'tibor qaratilganida ham ko'rish mumkin. Mamlakat aholisining deyarli yarmi qishloq joylarda istiqomat qilishi, yalpi ichki mahsulotning ko'pchilik qismi aynan shu sektorga to'g'ri kelishi fikrimiz dalilidir. Mazkur masala, ayniqsa, Amudaryoning eng quyi qismida joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Qoraqalpog'istonning geografik o'rni uning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish yo'nalishini ko'p jihatdan belgilab beradi. Eng avvalo, bu o'rinning muhim iqtisodiy geografik xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Qoraqalpog'iston O'zbekiston Respublikasining shimoli – g'arbiy chekkasida, mamlakatimizning asosiy markazlaridan uzoqda joylashgan. Uning yer usti tuzilishi murakkab emas, eng baland nuqtasi Sultonuvays tizmasi bo'lib, u dengiz sathidan 473 metr balandlikda joylashgan. Eng past qismi esa Sariqamish va Assaka cho'kmalari hisoblanadi. Qoraqalpog'istonning g'arbiy qismi Ustyurt platosi, qolgan hududi Turon pasttekisligi bilan band.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvi va rivojlanishiga hududlarning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bevosita ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo, tabiiy komponentlar ichida suv, tuproq va boshqa agroqlimiy resurslarning ahamiyati katta. Shuningdek, iqlim sharoitlari - yer osti va yer usti suvlari, tuproq xususiyatlari qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiylar tarkibini ko'p jihatdan belgilab beradi va qishloq xo'jaligining ma'lum bir sohasini joylashtirish va rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [5;6].

Qoraqalpog'iston Respublikasi ham O'zbekiston miqyosidagi hududiy mehnat taqsimotida qishloq xo'jaligining ba'zi tarmoqlariga ixtsoslashuvi asosida alohida ajralib turadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida yer maydoni katta bo'lsada, sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlari ancha cheklangan. Jami yer maydonining (16658123 hektar) 34,3 foiz qismidan qishloq xo'jaligida foydalaniladi, xolos. O'z navbatida, sug'oriladigan yerlar umumiyligi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning bor-yo'g'i 7,3 foizini (476741 hektar) tashkil qiladi [9]. "O'zbekiston Respublikasi yer fondi" statistik to'plami ma'lumotlari bo'yicha qishloq tumanlari miqyosida jami qishloq xo'jaligi yerlarida sug'oriladigan yerlar ulushi katta farqlarga ega. Masalan, Taxiatosh (83,0 %), Amudaryo (77,4 %), Qonliko'l (72,7 %), Kegeyli (61,9 %), Nukus (61,0 %) tumanlarida sug'oriladigan maydonlar ulushi yuqori. Shuningdek, Shumanoy va Chimboy tumanlari qishloq xo'jaligi yerlarning yarmidan ortiq qismi sug'orib dehqonchilik qilinadi. Biroq, Qo'ng'iroq va Tuxtako'pir (2,3 %), To'rtko'l (4,7 %), Qorao'zak (8,2 %), Ellikqal'a (8,0 %) va Beruniy (9,1 %) tumanlarida sug'oriladigan yerlar ulushi ancha past.

Qoraqalpog'istonda 2022-yilda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining yalpi qiymati 14,36 trln so'mni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 103,3 % ga o'sgan. O'zbekistonda jami yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotining 3,9 % i Qoraqalpog'iston hissasiga to'g'ri keladi, bu jihatdan Qoraqalpog'iston mamlakatimiz hududlari orasidagi eng oxirgi o'rinnardan birida, faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda turadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 49,5 % ni tashkil qiladi, chovachilikning salmog'i esa 50,5 % ga teng. Dehqonchilik va chovachilik mahsulotlarining o'zaro nisbati yillar davomida ob-havo sharoitiga qarab o'zgarib turadi. Respublikada Qonliko'l, Amudaryo, Nukus va Shumanoy tumanlaridan tashqari barchasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqonchilikka nisbatan chovachilik ustunlik qiladi. Bu borada Bo'zatov tumani (83,8 %) yaqqol ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda jami mahsulotning 34,3 % i fermer xo'jaliklari, 58,1 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, qolgan 7,6 % esa qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. 2022-yil yakunlariga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qonliko'l (52,9 %) va Amudaryo tumanlarida (42,0 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Nukus (93,5 %) shahrida, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Xo'jayli (15,5 %) tumaniga to'g'ri kelgan. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Bo'zatov tumanida (4,8 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Qonliko'l tumanida (39,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Chimboy tumanida (2,7 %) kuzatilgan [7].

Qoraqalpog'istonda 2022-yilda 287,1 ming tonna don (respublika yalpi hosilining 3,6 % i, hududlar orasida 12-o'rin) yetishtirilgan. Donli ekinlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalarini bo'yicha tahlil qilinganda, don yetishtirish umumiyligi hajmidan 78,0 % fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan. Donli ekinlar geografiyasida sholi yetishtirish mintaqada alohida mavqega ega. Hududining Amudaryo quyi qismida joylashganligi, yer usti tuzilishi, iqlimi respublikamiz sholisining asosiy qismini yetkazib berishga asos bo'lib xizmat qiladi. Albatta, sholi yetishtirish respublikanining barcha tumanlarida bir xil ko'rinishga ega emas; ular orasida tafovutlar ko'zga tashlanadi. Masalan, bevosita Amudaryoga yaqin To'rtko'l, Amudaryo, Beruniy va Chimboy tumanlari bu borada eng yuqori ko'rsatkichlarga ega, ularning har biriga Qoraqalpog'iston sholi hosilining 15-20 % mos keladi.

Respublikada sholi yetishtirishning o'ziga xos salbiy tomonlari ham mavjud. Mavjud ilmiy adabiyotlar guvohlik berishicha, yer osti suv sathining yaqinligi, sho'rlashish darajasining yuqoriligi, sho'r yuvish muammosi ko'proq Quyi Amudaryo mintaqasiga xos. Qolaversa, mazkur masala

## GEOGRAFIYA


mustaqillikdan keyin yanada jiddiyashdi. Sababi, sobiq Ittifoq davrida bevosita qo'shni Turkmaniston mamlakatining Doshxovuz viloyatiga o'tuvchi irrigatsiya tarmoqlari - kanal, kollektor va drenajlar to'sildi. Bu esa vaziyatni yanada og'irlashtirdi, o'simlik va hayvonot dunyosiga keskin ta'siri kuchaydi, aholi o'rtaida turli xil, asosan sholichilik bilan bog'liq kasalliklarni (revmatizm, angena), har xil hashorat, kemiruvchi hayvonlarning ko'payishiga olib kelmoqda. Bunday holatning oldini olish uchun sholi ekiladigan maydonlarni reja asosida maxsus (Amudaryo oldi qayirlari) tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu hududlarda yer osti suvining yaqin joylashganligi suvning yer ostiga kam shimalishiga va sholi dalalarida suvni bir me'yorda saqlab turishga imkon beradi.

Shuningdek, tahlil qilinayotgan yilda 239,8 ming tonna paxta (6,9 %; 11-o'rin), 90,6 ming tonna kartoshka (2,6 %, 11-o'rin), 314,6 ming tonna sabzavot (2,8 %, 12-o'rin), 64,9 ming tonna meva va rezavorlar (2,2 %, 12-o'rin), 173,5 ming tonna poliz ekinlari (6,6 %, 9-o'rin), 11,5 ming tonna uzum (0,7 %, 13-o'rin) yetishtirilgan [10].

Ta'kidlash joizki, Quyi Amudaryo mintaqasi, jumladan, Qoraqalpog'iston qadimdan sabzavot-poliz ekinlari bilan mashhur bo'lgan. Ayniqsa, qovun - tarvuzlarning turli navlari, sabzavotlar yetishtirishda boy tarix va tajribaga ega.

1-rasm

### Qoraqalpog'iston Respublikasida yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari



Rasm mualliflar tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari asosida chizilgan.

Qoraqalpog'istonda bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish boshqa mintaqalarga nisbatan biroz cheklangan. Chunki, bog'dorchilik, uzumchilik ko'proq tog', tog' oldi, adir zonalarga xos. Bundan tashqari, yer osti suvlarning yaqinligi (ba'zi daryo, kanal va ariqqa yaqin hududlarda yer osti suvleri 1,5-2,0 metr chuqurlikda) ekin yer resurslarining ozligi biroz to'sqinlik qiladi. Biroq shunga qaramasdan, har bir hududda o'z ichki imkoniyati, ehtiyoji, ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda meva, uzum yetishtirilmoxda.

Qoraqalpog'iston Respublikasida 2022-yilda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6757,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan holda, oldingi yilga nisbatan o'sish 104,0 % ni tashkil qilgan. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 50,5 % teng bo'lgan. Barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 120,5 ming tonna go'sht (4,4 %, 12-o'rin), 434,1 ming tonna sut (3,7 %, 12-o'rin), 386,9 mln dona tuxum (4,8 %, 10-o'rin), 802,0 tonna pilla (3,3 %, 12-o'rin), 93,0 ming dona qorako'l terilari (7,1 %, 4-o'rin) yetishtirilgan.

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda katta hududiy farqlar mavjud. Deyarli barcha dehqonchilik va chovachilik mahsulotlarini yetishtirishda janubiy tumanlar Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l va Ellikqal'a alohida ajralib turadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotning katta qismi aynan shu 4 ta tuman hissasiga to'g'ri keladi.

Don yetishtirish Amudaryo va To'rtko'l tumanida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu ikkita tuman hissasiga Qoraqalpog'istonda olingan boshoqli don hosilining 36,3 foizi to'g'ri keladi. Sabzavot mahsulotlari hosili bo'yicha Amudaryo, Beruniy va To'rtko'l tumanlari (46,3 %) yetakchi. Kartoshka Amudaryo tumanida eng ko'p yetishtiriladi.

Yirik shoxli qoramollar bosh soniga ko'ra Amudaryo, Beruniy, To'rtko'l, Ellikqal'a tumanlari oldinda turadi. Qo'y va echkilarni bosh soni bo'yicha esa To'rtko'l, Taxtako'pir, Ellikqal'a, Amudaryo, Qo'ng'iroq va Qorao'zak tumanlari ajralib turadi.

Yirik shoxli qoramollarning 5,9 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelgan. Shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 14,5 % fermer xo'jaliklariga, 82,9 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 2,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Otlar umumiy sonidan 26,2 % fermer xo'jaliklariga, 70,7 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,1 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Parrandalar umumiy sonida vaziyat yuqoridaqiga nisbatan biroz boshqacharoq bo'lib, 9,3 % fermer xo'jaliklariga, 77,0 % dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 13,7 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar xissasiga to'g'ri keladi.

2022-yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 11148,6 tonna baliq ovlangan. Ovlangan baliq umumiy hajmidan 42,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, 39,5 foizi esa fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgan.

### XULOSA

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi mavjud bo'lgan katta muammo suvning yetishmasligidir. Bu yerda yog'ingarchilik kam bo'ladi, uning ustiga qishloq xo'jalik ekinlari uchun suv eng zarur bo'lgan, o'simlik o'sadigan vegetatsiya davrida yog'ingarchilik keskin kamayib ketadi. Mazkur muammoni oqilona hal qilish yo'llaridan biri suvdan ehtiyyotkorlik, tejamkorlik bilan foydalanish, uni isrof qilishga yo'l qo'ymaslikdir. Bu borada qator mamlakatlarda orttirilgan tajribalardan to'la foydalanishga qaratilgan tadbir-choralarni ko'rish zarur.

Suv tanqisligi muammosining keskinlashuvi butun respublika qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston sholichiligidida muammolar keskin tus olmoqda. Albatta, bunday vaziyat, yuqorida ta'kidlanganidek, tabiiy omillar bilan birga agrotexnik xizmatlar ko'rsatishga (yerni haydash, sho'rini yuvish, almashlab ekish va h.k.), suvdan oqilona foydalanish (bu borada rivojlangan mamlakatlardan tajribasi tomchilatib sug'orishni joriy etish) talab etiladi.

Shuningdek, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligining cho'l tabiatiga moslashuvchanligini va ko'p funksionalligini kuchaytirish uchun uning ko'p xilligini, intensifikatsiyalashishini, integratsiyalashishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim. Ushbu maqsadlar uchun tumanlarning alohida xo'jaliklari sharoitlariga moslashtirilgan qishloq xo'jaligini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, ma'lumotlar tahlilidan ko'rish mumkinki, Qoraqalpog'istonda, xususan respublikaning janubiy tumanlarida agrosanoat majmuining qayta ishlash bo'g'ini, konserva sanoatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Bu esa, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni taqozo qiladi.

Respublikada qishloq xo'jaligining turli tarmoqlarini har bir qishloq tumanlari sharoitidan (demografik va ekologik vaziyati, irrigatsiya-melioratsiya infratuzilmasi va b.) kelib chiqqan holda rivojlantirish lozim. Xususan, qishloq xo'jaligi va uning mahsulotlarini hududiy ishlab chiqarish majmuasi shaklida, jumladan, agrosanoat ko'rinishida tashkil etish katta samara beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasigi "to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. <https://www.lex.uz>.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni.

## GEOGRAFIYA

3. Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022–2026-yillarda Qoraqalpogiston Respublikasi hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qoshimcha chora-tadbirlar togrisidall gi Qarori.
4. Ozbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldag'i "Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-66-szon Qarori.
5. Jumayev T.J., Qurbonov Sh.B., Daljanov K.O. Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari // FarDU ilmiy xabarlari. Maxsus son., 1/2024.
6. Daljanov K.O., Utarbayeva K.A. Qoraqalpog'istonda dehqonchilikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari //O'zbekiston geografiya jamiyatি, 53-jild, 2018 yil. Toshkent, 111-113 b.
7. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O'zbekiston geografiyasi (II qism. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi). Darslik. – Toshkent: Yangi Chirchiq prints, 2024. – 382 b.
8. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) Qishloq xo'jaligi qo'mitasining materiallari. <http://www.fao.org/docs/synthesis.pdf>.
9. O'zbekiston Respublikasining Yer fondi (2023 yil 1 yanvar holatiga). Toshkent, 2023.
10. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy veb sayti).